

## Fan platformasi

<b>Fanning to'liq nomi:</b> Kimyo va oziq ovqat mahsulotlarini identifikatsiyalash va falsifikatsiyalashtirish		
<b>Fan kodi:</b> KOIF 3504	<b>Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):</b> 4	<b>davomiyligi:</b> 1 semestr
<b>Kafedra:</b> Sifat menejmenti va mahsulotlar xavfsizligi		
<b>Fan qaysi yo'naliш talabalar uchun:</b> 60711300 Metrologiya, standartlashtish va mahsulot sifati menejmenti (kimyo va oziq – ovqat)		
<b>Fan ma'ruza o'qituvchisi:</b> Hamroqulov G'ofurjon		
<b>Fanga ajratilgan umumiy soatlar:</b> 120 <b>Email:</b> lobarziyodova@gmail.com		
<b>Fan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari):</b> Ziyodova Lobar Bahodir qizi		
<b>Prerekvizitlar:</b> talaba quyidagi Ixtisoslikka kirish, Tovarshunoslik, Sifat asoslari fanlari bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi	<b>Tanlov turi:</b> Tanlov fan	
<b>Fanning qisqacha bayoni:</b> talabalarga oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini ekspertiza qilishning mohiyati, ahamiyati, vazifalari va har bir guruh oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarining identifikatsiyasi va qalbakilashtirishining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bilimlarni berish hamda tovarlarni identifikatsiyalash va qalbakilashtirish turlarini o'rganish, qalbakilashtirish vositalari va ularni aniqlash usullari bilan tanishtirish, qalbakilashtirish oqibatlari va uning bartaraf etish choralarini o'rgatadi.		

**Fanning maqsadi:** Talabalarda tovarlarning identifikatsiya ko'rsatkichlarini va qalbakiligini aniqlashda hamda sifat ekspertizasini o'tkazish bo'yicha yo'naliш kasbiga mos bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

### Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

➤ Oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat tovarlari ob'ektlari va sub'ektlari tavsifini, ekspertiza turlarini, ekspertizaning maqsadi va vazifalari, har bir guruh kimyo tovarlarining ekspertizasini o'tkazishning usullarini, tovarlarni identifikatsiyalash me'yoriy-huquqiy bazasini identifikatsiyasi bo'yicha ko'rsatkichlarni, qalbakilashtirish vositalari va aniqlash usullarini, qalbakilashtirishning axloqiy, huquqiy va maishiy oqibatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

➤ har bir guruh oziqa-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari identifikatsiya turlari va sifat ekspertizasi o'tkazish uslublarini to'g'ri tanlash, qabul qilingan usullar yordamida tovarlarni qalbakiligini aniqlash hamda natijalarni hisoblash **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**

➤ tovarlarni identifikatsiyasini yoki sifat ekspertizasini o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish asosida ekspert xulosasini yozish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

### Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

### Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid masalalar yechish orqali mustahkamlanadi. Tovarlarni identifikatsiyalash va qalbakilashtirish fanini chuqur o'zlashtirish uchun talaba fanning har bir bo'limini mustaqil o'rganishi va ko'p variantli masalalar yechish orqali mustahkamlashi zarur. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor – o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar o'tilgan ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar, berilgan mavzulardan mustaqil ishlar bajaradilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini

mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

-amaliy mashg‘ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;

-o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg‘otish;

-talabada natijani mustaqil ravishda qo‘lga kiritish imkoniyatini ta’minlash;

-talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

### **Mustaqil ta’lim**

Talabani Tovarlarni identifikatsiyalash va qalbakilashtirish fanidan chuqur bilim olishidagi mustaqil ta’lim ishining asosiy maqsadi – bo‘lajak mutaxassislarni dunyoqarashini, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bo‘yicha salohiyatini oshirish, ular ongida milliy g‘oya asoslarini shakllantirish; kafedra jamoasi rahbarligi va uzlusiz nazorati ostida talabada muayyan o‘quv vazifasi va topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

Uy vazifalarini bajarish, qo‘srimcha darslik va boshqa o‘quv adabiyotlarini mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni axborot resurs markazlaridan izlash, internet tarmoqlaridan foydalanib fanga oid rus, ingliz va boshqa chet tillarida chop etilgan adabiyotlarni elektron nusxalarini to‘plash, shular asosida mavzuga oid taqdimotlar tayyorlash va o‘tkazish; salohiyatli professor-o‘qituvchilar rahbarligida laboratoriya ishlarini virtual stendlarini yaratish; ilmiy-ijodiy to‘garaklar doirasida ilmiy-ijodiy izlanishlarni olib borish yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruza tezislarini tayyorlash.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o‘zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda o‘z aksini topadi. Shu sababli baholash tizimida mustaqil ishlarga alohida baho ajratilmaydi, ular JB, OB va YaB baholari tarkibiga kiritilgan.

<b>Nº</b>	<b>Fan mavzulari</b>	<b>Ma’ruza soatlar hajmi</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot soatlar hajmi</b>	<b>Mustaqil ta’lim soatlari</b>
1	«Tovarlarni identifikatsiyalash va qalbakilashtirish» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	2	2	6
2	Identifikatsiya turlari	2	2	6
3	Identifikatsiya ko‘rsatkichlari	2	2	6
4	Identifikatsiya usullari	2	2	6
5	Tovarning muvofiqlik darajasini baholashda identifikatsyaning o‘rni va ahamiyati	2	2	6
6	Qalbakilashtirish turlari va vositalari	2	2	6
7	Qalbakilashtirish oqibatlari va uni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar	2	2	6
8	Oziq-ovqat tovarlarini identifikatsiyalash va qalbakilashtirish	2	2	6
9	Un, don va makaron mahsulotlarini identifikatsiyalash va qalbakilashtirish	2	2	6
10	Sut mahsulotlarini identifikatsiyalash va qalbakilashtirish	2	2	6
11	Go‘shtni va go‘sht mahsulotlarini identifikatsiyalash va qalbakilashtirish	2	2	6
12	Baliq va baliq mahsulotlarini identifikatsiyalash va qalbakilashtirish	2	2	6
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>24</b>	<b>72</b>

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Чечик А.М. Товароведение и экспертиза товаров культурно-бытового назначения: Учебник 2-е издание, исправленное и дополн.-М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2006 г.– 536с.

2. И.Ш.Дзахмишева Идентификация и фальсификация непродовольственных товаров // учебное пособие — М.: Дашков и К°, 2013 г. – 360 с.

3. Петрищев Ф.А. Теоретические основы товароведения и экспертизы непродовольственных товаров: Учебник, 2-е издание, испр.-М.: Издательская торговая корпорация “Дашков и К”, 2017г.-508с.

4. М.Ф.Ҳамроқулов, Д.Ю.Хасанова, F.Х.Ҳамроқулов Товарларни идентификациялаш ва калбакилаштириш // ўқув қўлланма ТКТИ, Тошкент 2020, - 218 б.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

5. Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
6. "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va havfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
7. "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
8. "Xo'jalik sub'ektlari faoliyatini nazorat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
9. "Metrologiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
10. "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
11. Учебники по отдельным разделам товароведения и экспертизы продовольственных товаров
12. СанПиН 0283-2010. Гигиенические требования к качеству и безопасности продовольственного сырья и пищевых продуктов. М.: 2010.
13. Шепелев А.Ф., Печенежская И.А. Товароведение и экспертиза непродовольственных товаров // Учебное пособие М.: ИКЦ “МАРТ”, Ростов н/Д: Издательский центр “МАРТ”, 2003. – 687 с.

### **Axborot manbalari**

14. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali
15. www.lex.uz. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar milliy bazasi
16. www.minecono.my.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
17. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
18. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
19. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
20. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
21. www.standart.uz (Uzstandart agentligi)
22. www.smsiti.uz (Standartlar institute)
23. www.uza.uz (O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti)

Kontakt soatlari\*: mustaqil ta'lif topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murijaat qilishingiz mumkin:

<b>№</b>	<b>Kun</b>	<b>Vaqt</b>	<b>Xona</b>
1.	Chorshanba	11.00-13.00	304
2.	Juma	14.30 – 16.00	304